e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 10

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/xjxb7e85

QUYI AMUDARYO HUDUDIDA ANTIK DAVR MUSIQA SAN'ATINING MODDIY-MADANIY YODGORLIKLARDA IFODALANISHI

Bobojanov Ulugʻbek Salayevich
Urganch davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi.
e-mail: ulugbekbobojanov51@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0003-2495-7202

Annotatsiya.
Ushbu maqolada Quyi Amudaryo hududida antik davr musiqa san'atining moddiy-madaniy yodgorliklarda ifodalanishi masalasi yoritiladi. Hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan tasviriy san'at namunalari, keramik buyumlar, haykaltaroshlik asarlari, tangalar va boshqa moddiy manbalarda musiqa madaniyatiga oid ma'lumotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, musiqa asboblarining tasvirlari, ularning shakliy xususiyatlari va jamiyat hayotidagi oʻrni oʻrganiladi. Arxeologik manbalar asosida antik davrda Quyi Amudaryo aholisining musiqiy dunyoqarashi, estetik qarashlari va madaniy aloqalari haqida xulosalar beriladi. Tadqiqot natijalari hududning qadimgi musiqa madaniyati tarixini oʻrganishda moddiy-madaniy yodgorliklarning muhim manba sifatidagi ahamiyatini koʻrsatadi.
Kalit soʻzlar: Quyi Amudaryo, antik davr, musiqa san'ati, musiqa madaniyati, arxeologik manbalar, moddiy-madaniy yodgorliklar, musiqa asboblari, tasviriy san'at, arxeologiya, madaniy aloqalar.

ОТРАЖЕНИЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА АНТИЧНОГО ПЕРИОДА В МАТЕРИАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ПАМЯТНИКАХ НИЖНЕГО АМУДАРЬЯ

Бобожанов Улугбек Салаевич
Ургенчский государственный университет, независимый соискатель.

Аннотация.
В данной статье рассматривается отражение музыкального искусства античного периода в памятниках материальной культуры Нижнего Приамударья. Анализируются сведения о музыкальной культуре, содержащиеся в произведениях изобразительного искусства, керамических изделиях, скульптурных памятниках, монетах и других материальных источниках, обнаруженных в результате археологических исследований на территории региона. Кроме того, изучаются изображения музыкальных инструментов, их конструктивные и морфологические особенности, а также их роль в жизни общества. На основе археологических источников формулируются выводы о музыкальном мировоззрении, эстетических представлениях и культурных связях населения Нижнего Приамударья в античную эпоху. Результаты исследования демонстрируют важное значение памятников материальной культуры как источников для изучения истории древней музыкальной культуры региона.
Ключевые слова: Нижнее Приамударье, античная эпоха, музыкальное искусство, музыкальная культура, археологические источники, памятники материальной культуры, музыкальные инструменты, изобразительное искусство, археология, культурные связи.

THE REPRESENTATION OF MUSICAL ART OF THE ANCIENT PERIOD IN THE MATERIAL AND CULTURAL MONUMENTS OF THE LOWER AMU DARYA REGION

Bobojanov Ulugʻbek Salayevich
Urgench State University, Independent Researcher.

Abstract.
This article examines the representation of musical art during antiquity in the material and cultural monuments of the Lower Amu Darya region. It analyzes evidence of musical culture found in works of visual art, ceramic objects, sculptures, coins, and other material sources discovered through archaeological research conducted in the region. The study also explores depictions of musical instruments, their morphological and structural characteristics, and their role in social life. Based on archaeological sources, conclusions are drawn regarding the musical worldview, aesthetic perceptions, and cultural connections of the population of the Lower Amu Darya region during antiquity. The findings demonstrate the importance of material and cultural monuments as valuable sources for studying the history of the region's ancient musical culture.
Keywords: Lower Amu Darya, antiquity, musical art, musical culture, archaeological sources, material and cultural monuments, musical instruments, visual

arts, archaeology, cultural connections.

Kirish. Qadimgi davrlarda shakllangan musiqa madaniyati insoniyat ma'naviy hayotining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Musiqa insonlarning estetik qarashlari, diniy-e'tiqodiy tasavvurlari, ijtimoiy munosabatlari va kundalik turmushi bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. Shu jihatdan, qadimgi sivilizatsiyalar tarixini o'rganishda musiqa san'atiga oid moddiy manbalar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, arxeologik yodgorliklar, tasviriy san'at namunalari, keramika, haykaltaroshlik, tangalar va boshqa moddiy ashyolarda aks etgan musiqa asboblari va musiqachilar tasvirlari o'sha davr musiqa madaniyati haqida qimmatli ma'lumot beradi.

Quyi Amudaryo hududi Markaziy Osiyoning qadimgi madaniy o'choqlaridan biri sifatida alohida ahamiyatga ega. Ushbu hududdagi qadimgi shaharlar va arxeologik yodgorliklardan topilgan moddiy manbalar aholining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotini tiklash imkonini beradi. Xususan, antik davrga oid arxeologik materiallarda musiqa san'ati va musiqa asboblariga doir ayrim tasvirlar va ashyolarning uchrashi o'sha davrda musiqaning jamiyat hayotida muayyan o'rin tutganini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Quyi Amudaryo hududining qadimgi tarixi va madaniy merosi N. I. Muravyev, A. F. Negri, G. I. Danilevskiy, A. V. Kaulbars, N. I. Veselovskiy, A. Ye. Rossikova, K. A. Inostransev va boshqa tadqiqotchilar asarlarida turli jihatlardan yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda Xorazm vohasining geografik o'rni, qadimgi shahar va qal'alari, aholi turmush tarzi, xo'jaligi hamda moddiy-madaniy yodgorliklari haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan XX asrning 30–40-yillarida olib borilgan tadqiqotlar Bozorqal'a, Yonboshqal'a, Quyqirilganqal'a, Ko'zaliqir kabi yodgorliklarning tarixiy-madaniy ahamiyatini aniqlashga imkon berdi. Ushbu manbalar qadimgi aholining turmush tarzi va ma'naviy-madaniy hayotini, jumladan, musiqa san'atining shakllanishi va rivojlanishini o'rganish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, arxeologik, manbashunoslik va san'atshunoslik metodlaridan foydalanildi. Yozma manbalar va arxeologik materiallar o'zaro qiyosiy tahlil qilinib, Quyi Amudaryo hududining qadimgi madaniy muhiti hamda musiqa san'atining jamiyat hayotidagi o'rnini aniqlashga harakat qilindi. Shuningdek, Yonboshqal'a, Ko'zaliqir va boshqa yodgorliklardan aniqlangan moddiy manbalar orqali qadimgi aholining turmush tarzi, diniy qarashlari va madaniy faoliyati tahlil qilindi. Tadqiqotda fanlararo yondashuv asosida arxeologiya, tarix, san'atshunoslik va musiqashunoslik ma'lumotlaridan kompleks foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning shimoli-g'arbida, Qizilqum va Qoraqum oralig'ida, shimolda Orol dengizi, janubda Qoraqum va Qizilqum doirasida joylashgan Xorazm vohasi aloqa yo'llari chorrahasida joylashib, iqtisodiy va etnomadaniy markaz sifatida O'zbekistonning strategiyasida boshqa geoiqtisodiy hududlar singari o'z tarixiy o'rniga ega. Voha hududidan o'tgan shimoliy-markaziy va janubiy aloqa yo'llari Ural, Volgabo'yi, Kavkaz, Qora dengiz va Rossiyaning shimoliy hududlariga yetib borib, Sharq xalqlari hunarmandchilik va shaharsozlik madaniyati sohasida erishgan madaniyatini G'arb bilan tanishtirishda tayanch vazifasini bajargan. Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tarix taqozosiga ko'ra, Kat–Gurganch–G'azna hududlarida sayohatlari davrida kuzatgan hududlarning geografik holati to'g'risidagi xulosasini 1025-yilda yozgan geodeziya asarida Amudaryoning Xorazmdagi ahamiyatini qayd qilib: "Keyin (Jayhun) o'z yo'nalishini xaroba tomon burib, ikki sohili bo'ylab 300 dan ziyod shaharlar bunyod qilganlar, ularning xarobalari hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda", deb hayratomuz qayd qilgan edi [1, c. 95]. Mil. avv. 22 ming yillar Amudaryo harakati natijasida Xorazm hududi ikki – o'ng va so'l sohil hududlariga bo'lingan. Abu Rayhon Beruniy geografik holatga ham e'tibor berganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa Xorazmda geografiya fani vujudga kelishi va rivojlanishining ilk qadamini boshlab bergan.

Xorazm vohasi aholisi Qizilqum va Qoraqum o'rtasida "biqiq" joylashgan bo'lsa ham, tarixiy davrlarda kichik, o'rtamiyona va miqdor jihatidan turli qishloq va shaharlarning saqlanib qolganligi, ularni ro'yxatda qayd qilish, ularni o'rganishga undagan qator tadqiqotchilar asarlarida qayd qilingan ma'lumotlardan kelib chiqib, ularni maqsadli ilmiy ravishda o'rganishni tarix taqozo qilgan. Bunday ma'lumotlarning geografiyasi keng bo'lib, ikki sohil hududi bo'ylab joylashgan yodgorliklar haqida rus tadqiqotchilari va yozma manbalarda qayd qilingan ma'lumotlar anchagina. Ushbu ma'lumotlar voha aholisining qadimdan hayot va ijod uyg'unligi natijasi bo'lgan madaniy meros obyektlarini arxeologik tadqiqotlar va yozma manbalar asosida o'rganishga bo'lgan zaruratini ushbu bandda yoritish mumkin:

Birinchidan, voha hududida XIX asrning 20-yillaridan boshlab Rossiya imperiyasi hukmdorlari tomonidan yuborilgan N. I. Muravyev asarida Xiva xonligining Buxoro, Eron davlatlari bilan olib boradigan savdosining ahamiyatga ega emasligini qayd qilib, Rossiya bilan olib boradigan yo'llari Dashti Qipchoq–Orenburg, Mang'ishloq orqali Astraxan, Krasnovodsk orqali savdo yo'li qulay bo'lganligini Xiva xoniga qayd qilgan [5, c. 45; c. 95]. Mazkur kitob Yevropada Fransiya va Germaniya aholisi tiliga tarjima qilinganligini qayd qilish lozim. N. Muravyev kitobida Xiva xonligida istiqomat qilgan aholining turmush tarzi, kasb-kori hamda qiziqarli etnografiyasi to'g'risida tarixiy ma'lumotlar Rossiya tomonidan Xiva xonligi hududi, foydali qazilmalaridan foydalanib, o'z manfaatlariga xizmat qildirish maqsadida turli toifadagi vakillarni yuborish odat tusiga aylana boshlagan. Shu ma'noda Xiva xonligiga A. F. Negri, G. I. Danilevskiy, N. I. Ignatovlar Xiva xonligida bo'lib, Xiva xoni bilan olib borgan muzokaralari, hududning ijtimoiy-iqtisodiy va turar joylari joylashishi to'g'risida tarixiy ma'lumotlar qayd qilingan [7, c. 62–153]. Venger sharqshunosi Armeniy Vamberi Saudiya Arabistonidan kelishi jarayonida Xorazmdan o'tish davrida Xivadan Qo'ng'irotgacha bo'lgan hududda Sho'raxon va Gaurqal'alarga oid fikrlarini asarida qayd qilgan [11, c. 362]. Rossiya tadqiqotchilari asarlarida Qirqqizqal'a, Ayozqal'a, Devkesganqal'a hamda shaharlar haqida afsonalar qayd qilingan [6; C. 95–100]. N. I. Veselovskiy esa asarining kirish

qismida "Qadimda bu yerda yuksak taraqqiy qilgan madaniyat, Xivaning qadimgi madaniyati Baqtriya madaniyatiga qarindosh, qadimgi Baqtriya madaniyatidan kelib chiqishi ehtimolligi" haqidagi ilk fikrini qayd qilgani ahamiyat kasb etadi [13; C. 2–3].

K. A. Inostransev asarida islom davrigacha Xorazm taqvimi, Navroʻz yil boshi bayrami, gʻalla ekish, hosil yigʻib olish muddatlariga oid xulosalarda Abu Rayhon Beruniyning ilk fundamental asaridan keng foydalangan [2; C. 3]. A. V. Kaulbars Amudaryo oʻng sohili hududida Chilpiq va Gaurqal'a yodgorliklari mudofaa devori bilan oʻrab olinganligini qayd qilgan [4; C. 31–32]. XX asr boshlarida A. Ye. Rossikova asarida Jampiqqal'a, Chilpiq, Govurqal'a yodgorliklarining topografik xususiyati, mudofaa devorlari toʻgʻrisida fikr-mulohazalarni qayd qilgan hamda "Yonganqal'asi – yirik inshoot, mudofaa bilimiga ega" ekanligini izoh qilgan [8; C. 640–644]. Shu ma'noda yuqorida zikr qilingan ma'lumotlar Xorazm vohasi hududida eng qadimdan yashab kelgan xalqimizning moddiy va ma'naviy madaniyatini oʻrganishning yangi davri boʻlgan. Albatta, ushbu tadqiqotlar tomonidan yangi arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi aholi markazlarida olib borilishi uchun tashkil qilingan edi. Yuqoridagi tadqiqot asarlarida qayd qilingan tarixiy davrlarda xoʻjalik-madaniy hududlarda joylashgan shaharsozlik madaniyati tarixini oʻrganishda nazariy-qiyosiy tahlil asosida yoritish mumkin. Oʻtgan asrning 30–40-yillarida Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi Amudaryo oʻng va soʻl sohili hududida keng qamrovli ravishda olib borgan arxeologik qidiruv natijasida roʻyxatga olingan tarixiy obidalarda arxeologik tadqiqotlarni oʻng sohilda Bozorqal'a, Yonboshqal'a, soʻl sohilda esa Yonboshqal'a, qisman Quyqirilganqal'ada olib borgan, olingan artefaktlar muhim ahamiyatga ega boʻlib, ilmiy izlanishlarni davom ettirish istiqbolini belgilab bergan. Hozirgi davrda Qoraqalpogʻiston Respublikasi Toʻrtkoʻl tumani hududida joylashgan Yonboshqal'a balandligi atrofida oʻtroq aholi tomonidan bunyod qilingan, ammo tarix taqozosiga koʻra, tashlab ketilgan, balandlik yon qismida qad koʻtargan Yonboshqal'a yodgorligida dastlabki arxeologik qazishmalar natijasida olingan ashyolar bilan boshlangan. Yodgorlikda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida ma'lum boʻldiki, toʻrt tomoni ikki qatorli mudofaa devori bilan oʻrab olingan (290 × 170 m), oraliq maydoni tashqi devor paxsa devor, 1,62 m dan keyin kvadrat gʻishtdan tiklangan xom gʻisht (40 × 40 × 10, 41 × 41 × 11 sm) (balandligi 9,5–10 m).

Mudofaa devori aylanasi – 5 m. Yodgorlik darvozasida (janubdan shimoliy hudud sari yoʻnalishda) ichki tuzilishini ikki qismga ajratgan, ikki mahalla tashkil etilgan boʻlib, har mahallada 200 uy-xonadan iborat boʻlgan, jami 400 uy-xonada aholi istiqomat qilgan. Mil. avv. IV – milodiy IV asrlarda mudofaa devori himoyasida umrguzaronlik qilgan. Shu tarixiy davrda markaziy koʻcha oxirida imorat qoldigʻi oʻrganilgan, bu supaga qurilgan "otashgoh" atrofida olovga boʻlgan diniy e'tiqodini bajarishda 800 yil mobaynida ma'naviyatida toʻplanishi natijasida tarkib topgan musiqa ohanglari sadosida kundalik kasb-korlarini davom ettirish ilinjida oʻzaro hamkor va bagʻrikenglik tarzida turmush tarzini olib borganlar [10; C. 191]. Shu bilan birga, ekspeditsiya Sariqamishboʻyi havzasi Amudaryoning Dovdon irmogʻi oʻrta qismi shimoli-gʻarbiy hududi balandligida (20 m) aholi tomonidan qad koʻtargan Koʻzaliqir yodgorligida qisman tarzda qazish ishlarini olib borishi natijasida uning topografik joylashishi sharqdan gʻarbiy tomon yoʻnalishi, toʻrt tomonini oʻrab olgan mudofaa devori uzunligi 1000 m, kengligi 400 m, 40 gektar ekanligi oydinlashgan. Asosiy qazishma ishlari janubiy mudofaa devorida olib borilishi natijasida uch qatorli mudofaa devori bilan oʻrab olinganligi (uch yoʻlak, ma'lum masofada 2,5 m – 2,5 m – 2,5 m), har yoʻlakda olov joylashgan boʻlib, uning tutuni chiqib turishi qayta tiklangan [9; C. 171]. Oʻtroq ziroatkor aholi kundalik turmush tarzida olov atrofida toʻplanishib, mayxoʻrlik qilib, musiqa ohanglarini kuylash an'analarini davom ettirganlar, degan xulosaga kelish ehtimoli mavjud.

XULOSA

Quyi Amudaryo hududida antik davr musiqa san'atining shakllanishi va rivojlanishiga oid ma'lumotlarni moddiy-madaniy yodgorliklar orqali oʻrganish ushbu mintaqaning qadimgi madaniy hayoti haqida muhim tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Arxeologik materiallar, xususan, tasviriy san'at namunalari, keramik buyumlar, haykaltaroshlik asarlari va boshqa moddiy manbalarda uchraydigan musiqaga oid tasvirlar antik davr aholisi hayotida musiqaning muayyan ijtimoiy va estetik ahamiyatga ega boʻlganini koʻrsatadi.

Shuningdek, Quyi Amudaryo hududining qadimgi madaniy markazlar bilan aloqalari musiqa san'ati taraqqiyotida ham muhim omil boʻlgan. Moddiy madaniyatdagi oʻxshashliklar va ayrim cholgʻu asboblari tasvirlarining keng hududlarda uchrashi mintaqalararo madaniy ta'sir va aloqalar mavjud boʻlganini koʻrsatadi. Bu esa Quyi Amudaryo musiqa madaniyatini Markaziy Osiyoning umumiy qadimgi madaniy jarayonlari doirasida oʻrganish zarurligini anglatadi.

Umuman, antik davrga oid moddiy-madaniy yodgorliklar Quyi Amudaryo musiqa san'ati tarixini oʻrganishda muhim manba vazifasini bajaradi. Ularni arxeologik, san'atshunoslik va musiqashunoslik yondashuvlari asosida kompleks tahlil qilish qadimgi musiqa madaniyatining xususiyatlarini yanada chuqurroq ochib berish imkonini yaratadi. Kelgusida arxeologik topilmalarni yangi tadqiqotlar bilan boyitish, musiqa asboblari tasvirlarini tipologik va qiyosiy oʻrganish hamda ularni boshqa mintaqalar materiallari bilan solishtirish mazkur yoʻnalishdagi ilmiy izlanishlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абу Райхан Бируни. Геодезия (Определение границ мест для уточнения расстояний между населёнными пунктами) // Избранные произведения. – Ташкент: Фан, 1966. – Т. III. – С. 95. URL: https://astro-cabinet.ru/library/Biruni/Geodezia/Geodezia_Ogl.htm
2. Герасимовский А. И. Древности Хивы и Амударьинского отдела // Исторический вестник. – Санкт-Петербург, 1909. – Сентябрь. – С. 971–973. URL: https://abashin.org/karta-sajta/
3. Иностранцев К. А. О домусульманской культуре Хивинского оазиса. – Санкт-Петербург: Сенатская типография, 1911. – С. 2. URL: https://tadqiqot.uz/index.php/history/article/view/2400

ISSN 3060-5059 (Online)

4. Каульбарс А. В. Низовья Амударьи, описанные по собственным исследованиям в 1873 г. // Записки Русского географического общества. – Санкт-Петербург, 1881. – Т. 9. – С. 31–32. URL: https://elib.rgo.ru/handle/123456789/219095
5. Муравьёв Н. Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819–1820 гг. гвардейского Генерального штаба капитана Николая Муравьёва, посланного в сии страны для переговоров. – Москва, 1822. – Ч. I–II. – С. 45, 95. URL: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_004428040/
6. Нестеров А. Прошлое приаральских степей в преданиях киргиз Казалинского уезда // Записки Восточного отделения Русского археологического общества. – Санкт-Петербург, 1900. – Т. XII, вып. 4. – С. 95–100. URL: https://commons.wikimedia.org/wiki/File:Прошлое_приаральских_степей_в_преданиях_киргиз_Казалинского_уезда_1900.pdf
7. Данилевский Г. И. Описание Хивы и Хивинского ханства. Путешествие в Туркмению и Хиву, составленное в 1843 году // Записки Русского географического общества. – Санкт-Петербург, 1851. – Кн. V. – С. 62–153. URL: https://drevlit.ru/docs/central_asia/XIX/1820-1840/Chiva_turkmen/lit2.php
8. Россикова А. Е. По Амударье от Петро-Александровска до Нукуса // Русский вестник. – Санкт-Петербург, 1902. – Август. – С. 641–643. URL: https://www.vostlit.info/Texts/Dokumenty/M.Asien/XX/1900-1920/Rossikova_A_E/text2.htm
9. Толстов С. П. Древности Верхнего Хорезма (Основные итоги работ Хорезмской экспедиции ИИМК 1939 г.) // Вестник древней истории. – Москва, 1941. – № 1. – С. 155–184. URL: https://tadqiqot.uz/index.php/history/article/view/2400
10. Толстов С. П. Древний Хорезм: опыт историко-археологического исследования. – Москва, 1948. – С. 93. URL: https://archive.nyu.edu/jspui/handle/2451/39872
11. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – Санкт-Петербург, 1865. – 221 с. URL: https://elib.rgo.ru/handle/123456789/67420
12. Вамбери А. Очерки Средней Азии (дополнение к «Путешествию по Средней Азии»). – Москва: Типография А. И. Мамонтова и К°, 1868. – 362 с. URL: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_003578443/
13. Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времён до настоящего. – Санкт-Петербург: Типография братьев Пантелеевых, 1877. – С. 2–3. URL: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_003590186/